




**QISHLOQ, O'RMON
VA BALIQ XO'JALIGI**

2018 yilning yanvar - sentyabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2000,4 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 100,8 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 1975,4 mlrd.so'mni (100,2 foiz), o'rmon xo'jaligida – 5,9 mlrd.so'mni (101,2 foiz), baliqchilik xo'jaligida – 19,1 mlrd.so'mni (192,9 foiz) tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sishi asosan chorvachilik, baliq, o'rmon va ushbu sohada ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada oshishi bilan izohlanadi.

Xususan yuqori o'sishi sur'atlari Mo'ynoq tumanida (122,8 foiz), Shumanay (108,5 foiz), Amudaryo (103,9 foiz), tumanlarida kuzatildi. Taxiyatosh (97,2 foiz) va Qonlikul (96,8 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlari kuzatildi.


**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi**



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiy hajmida Amudaryo tumaninig ulushi 17,5 foizni, Beruniy tumani 11,5 foizni tashkil etdi, Tortkul va Ellikqal'a tumanlari mos ravishda 11,0 foiz va 10,5 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush Nukus shahrida (0,5 foiz) qayd etildi.

QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sishi 100,2 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 94,4 foizni, chorvachilik mahsulotlari – 107,5 foizni tashkil qildi.


Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiyligi hajmining 72,2 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,9 foizi – fermer xo'jaliklariga, 0,9 foizi – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha
taqsimlanishi**



QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha hududlar kesimida taqsimlanishi



■ Fermer xojaliqlari

■ Diyxan (jeke jardemshi) xojaliqlari

■ Awil xojalig'i menen shug'llaniwshi ka'rstanalar



Dehqonchilik: 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1017,7 mldr.so‘mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 94,4 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 52,7 fozni tashkil qildi.

Hosilni yig’ib olish: Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida 184349 tonna (101,2 foiz) don mahsulotlari, 48568 tonna kartoshka (109,6 foiz), 201934 tonna sabzavot (104,9 foiz), 98093 tonna poliz (106,0 foiz), 35402 tonna meva (106,9 foiz), 5000 tonna uzum (110,3 foiz) mahsulotlari yig’ib olindi.

QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

**2018 yilning yanvar-sentyabrdagi xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagiga
dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	Fermer xo‘jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari		Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o’sish surati, foizda	tonna	o’sish surati, foizda	tonna	o’sish surati, foizda
Jami don mahsulotlari	127297	104,9	55346	93,5	1706	103,3

Kartoshka	9272	114,2	39128	108,7	168	84,4
Sabzavod	40262	94,9	160591	107,8	1081	104,0
Poliz	39174	105,6	58098	106,4	821	98,7
Meva	9880	104,2	22708	107,8	2814	109,4
Uzum	360	105,0	4339	110,9	301	107,5




2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 76,7 ming tonna go‘sht, 220,8 ming tonna sut, 210,6 mln.dona tuxum, 80296 dona qorako‘l teri va 981 tonna ju’n mahsulotlari ishlab chiqarildi

Chorvachilik: 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 913,2 mlrd.so‘mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 107,5 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiyligi xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 47,3 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xo‘jaliklarda chorvachilik mahsulotlarining ko‘payishi go‘sht ishlab chiqarish hajmining – 7,1 foizga, sut – 6,5 foizga, tuxum – 11,6 foizga o‘sishi bilan izohlanadi.



Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik



Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiyligi hajmidan 97,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 93,9 foizi, tuxumning 91,4 foizi, qorako'l terining 94,7 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

2018yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mah'sulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tn.	76,7	107,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	1,6	123,5
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	74,6	107,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	85,9
Sut, ming tn.	220,8	106,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	11,0	112,2
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	207,3	106,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,5	82,9
Tuxum, mln. dona	210,6	111,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	10,5	120,6
Deh'qon (ah'olining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	192,4	108,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7,6	274,2

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

Joriy yilning 1 oktyabr holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiyligi bosh soni 1083,8 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 313,0 ming boshga, qo‘y va echkilar – 1081,6 ming boshga, otlar - 23182 parrandalar – 4077,7 ming boshga yetdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 36,8 ming boshga (3,5 foizga), shu jumladan sigirlar – 13,0 ming boshga (4,3 foizga), qo‘y va echkilar – 44,7 ming boshga (4,3 foizga), parrandalar – 0,2 mln boshga (5,5 foizga) ko‘paydi.

2018 yilning 1 oktyabr holatiga yirik shohli qora mollar bosh soni to’g’risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,3 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga, 94,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,8 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to’g’ri kelishini qayd etib o’tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiyligi sonidan 9,0 foizi fermer xo‘jaliklariga, 88,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 2,6 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to’g’ri keladi, shuningdek parrandalar umumiyligi sonidan 5,5 foizi fermer xo‘jaliklariga, 90,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 3,9 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to’g’ri keladi.

2018 yil 1 oktyabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>ming bosh</i>	<i>o’sish surati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	1083,8	103,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	46,5	116,7
Deh’qon (ah’olining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	1028,2	103,2
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,1	84,0
ulardan sigirlar	313,0	104,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	15,0	111,9
Deh’qon (ah’olining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	295,2	104,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,8	90,3
Qo‘y va echkilar	1081,6	104,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	97,3	172,5
Deh’qon (ah’olining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	956,5	103,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27,8	52,6
Otlar	23,2	109,3
<i>shu jumladan:</i>		

			<i>ming bosh</i>	<i>o'sish surati, %</i>
Fermer xo'jaliklari			3,8	179,9
Deh'qon (ah'olining yordamchi) xo'jaliklari		shaxsiy	19,0	103,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar			0,4	63,1
Parrandalar			4077,7	105,5
<i>shu jumladan:</i>				
Fermer xo'jaliklari			225,1	106,7
Deh'qon (ah'olining yordamchi) xo'jaliklari		shaxsiy	3692,0	105,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar			160,6	102,0

Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

Qishloq xo'jaligi va ekologiya bo'limi

Nashr uchun mas'ul: **N. Madreymov** (61) 222-76-07